Davlat tilida ish yuritish

// 08.11.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/davlat-tilida-ish-yuritish

Kuni kecha “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi Sanobar Abduraxmonova rahbarligida “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ sex va bo‘limlarining davlat tilida ish yuritish holatlari o‘rganildi.

Jarayonda bo‘lim nomlari, atamalar, peshlavhalar, e’lonlar, shuningdek idoraviy ish qog‘ozlar lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ko‘zdan kechirildi.

O‘rganish yakunida aniqlangan ba’zi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berildi.

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ Matbuot xizmati